

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY FAOLIYATI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH

*Tayyorladi: Chilonzor tuman 2-son kasb-hunar maktabi "Maxsus fanlar kafedra"si
o'qituvchisi: Jo'rayeva Zebo.*

Barchamizga ma'lumki, davlat iqtisodiyotining turli tarmoqlarini modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotda yaratilayotgan maxsulotlarning bozor raqobatiga bardoshligini oshirishda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlarini oshirish esa, bu mamlakatimiz kapital bozorini jadal rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda kapital bozorini jadal rivojlanishini ta'minlashda investisiyalarni jalb qilishning samarali tizimini joriy etish va kapital bozorini mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri sifatida shakllantirish maqsadida dastlabki bosqichi sifatida jahon mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14-yanvardagi "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5630-sonli farmoniga asosan mustaqil davlat organi sifatida "Kapital bozorini rivojlantirish Agentligi" tuzilib, uning asosiy vazifalari etib qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, tartibga solish, davlat va nodavlat yoki aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tashkil etish hamda bu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirish belgilangan. Shuningdek, ushbu farmonga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 2019 yil 24 yanvardagi PQ-4127-sonli qarori ham qabul qilingan. Ushbu davlat organi o'z oldiga mamlakatimiz kapital bozorini rivojlantirishning 2020-2025 yillarga mo'ljallangan Strategiyasini ishlab chiqish vazifasini qo'ygan. Bugungi kunda ko'pchilik aksiyadorlik jamiyatlarida portfel daromadliligi kamligi, sof aktivlarining o'sish tendensiyasi pastligi, faoliyati yuritishga quyilgan talablarini murakkabligi mamlakatimiz moliya bozorida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga qiyinchiliklarni olib kelmoqda. Shu sababli ham aksiyadorlik jamiyatlarini moliya bozorida faoliyatini rivojlantirish hamda moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda kapital bozorini rivojlantirish Strategiyasini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining istiqbolli tashkiliy-huquqiy shakllanishi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, bugungi rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida aksiyadorlik jamiyatlari yetakchi o'rinni egallagan bu esa ularning rivojlanishining uzoq davri va mulk munosabatlarining tabiati bilan bog'liq bo'lgan.

Tarixda korxonalarining aksiyadorlik shakli 18-asr boshlarida paydo bo'lgan. Dastlab kooperativ korxonalar asosida, lekin ishlab chiqarishni ijtimoiylashtirishda hamda faoliyat ko'lamida ulardan ustun kelgan. Aksiyadorlik jamiyatlarining tobora ommaviylashining eng yuqori cho'qqisi 19- asrning o'rtalariga to'g'ri kelgan. Bu jarayon ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda temir yo'llarni qurish davriga to'g'ri kelgan. 19-asrning oxiriga kelib, aksiyadorlik kompaniyalari rivojlangan davlatning iqtisodiy tizimida asosiy yetakchi o'rinni egallagan.

Mamlakatimizda xususiy aksiyadorlik jamiyatlari sonini ko'paytirish lozim, chunki, xususiy aksiyadorlik jamiyatlarining ko'payishi o'z navbatida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish samaradorligini oshishiga hamda davlat byudjetiga soliqlar tushumining ortishiga xizmat qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiyotni tashkil etishning eng mukammal huquqiy mexanizmi hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqa mulk shakllariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega.

Birinchidan, kompaniya ustav fondini to'ldirish va o'z faoliyatini kengaytirish uchun aksiyadorlarning mablag'larini jalb qilish imkoniyatiga ega va bu mablag'lar qaytarilmaydi.

Ikkinchidan, kompaniyaning umumiy boshqaruv bo'limi ma'lum bir boshqaruvdan ajralib turadi, bu esa aksiyadorlarni boshqaruvchi xodimlarni tanlashga jiddiy munosabatda bo'lishiga olib keladi.

Uchinchidan, tashkilotning butun mehnat jamoasini aksiyalarni sotib olish orqali egalariga aylantirish imkoniyati yaratiladi, bu ularning faoliyati natijalarida aks etadi.

To'rtinchidan, aksiyadorlar tarkibiga mol yetkazib beruvchilar va boshqa sheriklarini jalb qilish, iqtisodiy faoliyat natijalariga umumiy qiziqish yaratish mumkin.

Beshinchidan, ushbu mulk shakli aksiyadorlar uchun qo'shimcha daromad manbasi hisoblanadi.[4] Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish, ya'ni moliyaviy tahlil bu keng ko'rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir.

Joriy likvidlilik koeffitsiyenti (JLK) qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish uchun aylanma aktivlarning yetarliligini ko'rsatadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{JLK} = \text{Joriy aktivlar} / \text{joriy passivlar}$$

Ushbu koeffitsiyent korxonaning barcha aylanma aktivlari mavjud qisqa muddatli qarzlarni qay darajada qoplaydi; ushbu qarzni moddiy aylanma mablag'larni jalb qilmasdan turib qay darajada qoplash mumkin va nihoyat, qisqa muddatli qarzlarning qancha qismini aktivlarning eng likvidli qiymati pul mablag'lari va qisqa muddatli

moliyaviy qo'yilmalar bilan qoplash mumkinligini aniqlash imkonini beradi. Joriy likvidlilik ko'ffisiyenti O'zbekiston sharoitida kamida 1,25 darajasida bo'lishi lozim. **Moliyaviy mustaqillik ko'ffisiyenti (MMK)** korxonaning o'z kapitali bilan qoplangan aktivlarning ulushini ko'rsatadi va quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{MMK} = \text{O'z mablag'lar manbalari} / \text{Balans aktivi}$$

Odatda investorlar ushbu ko'ffisiyentning qiymatiga alohida e'tibor qaratishadi. Amaliyotda ko'rsatkichning me'yoriy qiymatining eng pastki chegarasi 0,5 qabul qilingan. Ko'ffisiyentning yuqoriligi korxonaning moliyaviy barqaror holatda va tashqi kreditorlardan mustaqil ekanligini bildiradi. **Moliyaviy leveraj ko'ffisiyenti (MLK)** korxonaning o'z kapitalidan foydalanish samaradorligini tafsiflaydi va quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{MLK} = \text{O'z kapitali} / \text{Qarz majburiyatlari}$$

Ushbu ko'ffisiyentning yuqori darajasi korxonaning qarz mablag'lariga tobeklik holatini aks ettiradi. Ayni damda u moliyaviy dastak samarasi orqali o'z mablag'lari rentabelligiga ta'sir ko'rsatadi va moliyaviy xatar darajasini baholashda qo'llaniladi, ya'ni moliyaviy qaramlik darajasini belgilaydi. Ko'rsatkich darajasi aktivlar tarkibi, ulardan foydalanish samaradorligi, daromadlilik va korxonaning ixtisoslashuviga bevosita bog'liqdir.

O'z kapitali rentabelligi ko'ffisiyenti (ROE) korxonaning kapitaliga nisbatan sof foydasining ulushini ko'rsatadi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\text{O'KRRK (ROE)} = \text{Sof foyda} / \text{O'z kapitali}$$

Bu ko'ffisiyent korxonaga uchun muhim moliyaviy ko'rsatkich hisoblanib, har qanday sarmoyadonga, biznes egasiga, biznesga kiritgan sarmoyasidan qanchalik samarali foydalanganligini ko'rsatadi.

O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'ffisiyenti korxonaning joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan o'z mablag'lari yetarliligini ko'rsatadi va quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{O'AM} = \text{O'z mablag'lari} / \text{Joriy aktivlar}$$

Ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasi 0,1 dan katta bo'lishi lozim. Aks holda korxonaning moliyaviy darajasi joriy aktivlar orasida pasayishga olib keladi. **ividendli daromad ko'ffisiyenti (DDK)** – bu ko'rsatkich bitta aksiyaga to'g'ri keladigan dividend miqdorini ko'rsatadi va quyidagicha hisoblanadi:
$$\text{DDK} = \text{To'langan dividenlar} / \text{ustav kapitali}$$
 Ushbu ko'ffisiyentning yuqoriligi ijobiy holat hisoblanadi. Agar dividendli daromad ko'ffisiyenti 0,15 (15%) dan kichik bo'lsa, aksiyadorlik jamiyati aktivlarini fond bozoriga samarali joylashtira olmayotganligidan dalolat beradi. Natijada, investorlar o'rtasida norozichilik paydo bo'lishi mumkin. Aks holda, 0,15 (15%) dan yuqori bo'lsa, aksiyalarning bozor bahosi oshayotganligini ko'rsatadi.

Dividendni to‘lash qobiliyati koeffitsiyenti (DTQK) – bu dividendlar shaklida aksiyadorlarga to‘langan foydaning ulushi hisoblanadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$DTQK = \text{To‘langan dividendlar} / \text{sof foyda}$$

Ushbu ko‘rsatkich aksiyadorlik jamiyati pul rezervlarini jamg‘arish yoki qarzlarni so‘ndirish, iqtisodiy rivojlanishi uchun qayta investitsiyalash maqsadida kompaniya o‘z pul mablag‘larining qancha qismini aksiyadorlarga to‘lashi to‘g‘risida ma‘lumot beradi.

Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlarning moliyaviy ko‘rsatkichlari yordamida uning moliyaviy faoliyatini oshirish va undan foydalanish samaradorligi muammosi bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda ushbu muammoning dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyati hamda korxonalar kapitalining shakllanish tahlili metodologiyasining yetarli darajada emasligidandir. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarining kapitali asosiy iqtisodiy kategoriyalardan biri bo‘lib, uning mohiyati ilmiy fikr tomonidan bir necha asrlar davomida aniqlangan. Ushbu tezisda kapital mikro darajada, ya‘ni xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarning kapitali yoki aksiyadorlik jamiyatining kapitali sifatida ko‘rib chiqildi. Aynan shu tashkiliy-huquqiy shaklda kapitalni shakllantirish, boshqarish va undan foydalanish samaradorligi xususiyatlari paydo bo‘ladi. Aksiyadorlik jamiyatining kapitali bu ishlab chiqarishning asosiy omili hisoblanadi. Daromad keltiradigan moliyaviy resurslarni tavsiflaydi va uning egalarini farovonligini ta‘minlaydi hamda unga moliyaviy vositaning asosiy manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5630-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 2019 yil 24 yanvardagi PQ-4127-sonli qarori.
3. Xudoyqulov.X.X., “Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini baholashda chegirmaviy pul oqimlar usulidan foydalanishdagi muammolar”. Toshkent, 2020.
4. Akramov E.A., “Korxonalarining moliyaviy holati tahlili”. O‘quv qo‘llanma. T., Moliya. 2004.
5. Shakl.I.A., “Kapitalni shakllantirishni boshqarish“. Kiyev: Nika-Markaz, 2006. 512 s.

6. Yusupov.Sh.B., “Aksiyadorlik jamiyatlarning moliyaviy xavfsizligini baholash”. Toshkent;2020.
7. Abdujabborova M., “Xo‘jalik sub’yektlari moliyaviy hisobotlarining tahlili”. 2019.
8. Maribjonov.B.I., “Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil o‘tkazishning o‘ziga xos hususiyatlari”. 2024.
9. Maribjonov.B.I., “Byudjet jarayoni mohiyati va tamoyillarini amalga oshiruvchi davlat organlari va ularni vakolatlarini o‘rganish”. 2023.

